



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-aprel

VII-9-50-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **Tumanda 2024-yil davomida aholini uzlusiz elektr energiyasi bilan ta’minalash borasida olib borilgan ishlar hamda 2025-yildagi ustuvor vazifalarini belgilash to‘g‘risidagi hisoboti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldag‘i “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-54-sonli qarori ijrosini ta’minalash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonuni va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi VII chaqiriq to‘qqizinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda 2024-yil davomida aholini uzlusiz elektr energiyasi bilan ta’minalash borasida olib borilgan ishlar hamda 2025-yildagi ustuvor vazifalarini belgilash to‘g‘risidagi Kattaqo‘rg‘on tuman elektr ta’mnoti korxonasi rahbari J.Alimov, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tuman “Energosavdo” filiali rahbari M.Xodiyev, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Hududiy qurilish-montaj direksiyasi” filiali Samarqand hududiy bo‘linma boshlig‘i R.Olimovlarning hisoboti tanqidiy jihatdan muhokamalar natijasiga ko‘ra shartli ravishda qabul qilinsin.

2. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimi o‘rinbosari M.Rasulov, tuman elektr ta’mnoti korxonasi (J.Alimov), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tuman “Energosavdo” filiali (M.Xodiyev), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Hududiy qurilish-montaj direksiyasi” filiali Samarqand hududiy bo‘linmasi (R.Olimov) hamda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- tumanda joylashgan transformatorlar, transformator podstansiyalari, simyog‘ochlar, elektr simlari holatini muntazam nazorat qilib borish, ta’mirlash va kapital ta’mirlash hamda elektr ta’mnoti bo‘yicha yuzaga keladigan avariya holatlarini tezkorlik bilan bartaraf qilish;

- elektr tarmoqlariga noqonuniy ularish, talon-taroj qilish holatlarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish;

- iste’molchilarga elektr energiyasini yetkazib berishda xavfsizlikni ta’minalash;

- elektr ta'minoti bo'yicha yuzaga keladigan avariya holatlariga tezkorlik bilan munosabat bildirish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida qonun doirasida ko'rib chiqish;

- elektr energiyasi tejamkorligini oshirish yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish;

- qurilish ishlari tugallanmagan obyektlarni oxiriga yetkazish choralarini ko'rish;

- aholining elektr energiyasi bilan bog'liq muammolarini o'rganib, masalalarni o'z vaqtida bartaraf etish;

- ijtimoiy soha obyektlari, aholi hamda iqtisodiyot tarmoqlarini elektr energiyasi bilan uzlusiz ta'minlash yuzasidan belgilangan vazifalarni o'z vaqtida to'liq va sifatlari bajarilishini ta'minlash;

- murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish hamda ko'tarilgan masala va muammolarni zudlik bilan hal qilish choralarini ko'rish, mahallalardagi elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish, nosozliklarni erta aniqlash, shuningdek, elektr energiyasidagi uzilishlar to'g'risida fuqarolarni tezkor xabardor qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi A.Xudoyberdiyev elektr energiyasi bilan ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilib doimiy komissiya yig'ilishlarida muhokama etib borish hamda tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi muhokamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi A.Xudoyberdiyev hamda tumani hokimining o'rribbosari M.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH